https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 27.01.2026

Abdullayeva Mohira Saparboy qizi
Urganch davlat universiteti Tarix mutaxassisligi 1-kurs magistranti
mokhiraabdullayeva1998@mail.com
orcid.org/0009-0002-7092-1940
mohiraabdullayeva07@gmail.com
+998935983933

YUNON-RIM TARIXCHILARI ASARLARIDA ILK SAK -MASSAGET KO‘CHMANCHI XALQLARINING BOSHQARUV TIZIMI YUZASIDAN BA’ZI MULOHAZALAR

Annotatsiya: Ushbu maqola yunon-rim tarixchilari asarlarida tilga olingan ilk sak-massaget ko‘chmanchi xalqlarning boshqaruv tizimini o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqotda Gerodot, Strabon, Kvint Kurtsiy Ruf va boshqa antik manbalar tahlil qilinib, ko‘chmanchilarning siyosiy tuzilishi, harbiy tashkiloti va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlari haqida mulohazalar bayon etilgan. Maqola, shuningdek, bu xalqlarning o‘ziga xos urf-odatlari, yarog‘-aslahalari va jangovar an’analarini ko‘rsatib, O‘rta Osiyo tarixining murakkab qatlamlarini ochib berishga xizmat qiladi. Natijada, antik davr ko‘chmanchilari madaniyati va siyosiy tizimi bo‘yicha yangi ilmiy yondashuvlar shakllanadi.

Kalit so‘zlar: Sak-skif, skolot, boshqaruv tizimi, siyosiy tuzilish, harbiy tashkilot.

Аннотация: Эта статья посвящена изучению системы правления ранних сакско-массагетских кочевых народов, упомянутых в трудах греко-римских историков. В исследовании были проанализированы Геродот, Страбон, Квинт Курций Руф и другие античные источники, в которых излагались соображения о политической структуре, военной организации и социально-экономических процессах поселенцев. Статья также служит для раскрытия сложных слоев истории Средней Азии, показывая уникальные обычаи,

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 27.01.2026

доспехи и боевые традиции этих народов. В результате формируются новые научные подходы к культуре и политическому строю кочевников древности.

Ключевые слова: Сак-Скиф, Сколот, система управления, политическая структура, военная организация.

Annotation: This article focuses on the study of the system of governance of the early Saka-Massagets nomadic peoples, mentioned in the works of Greco-Roman historians. The study analyzed Herodotus, Strabon, Quintus Curtius Rufus, and other ancient sources, and described reflections on the political structure, military organization, and socio-economic processes of the settlers. The article also serves to reveal the complex layers of Central Asian history by showing the unique customs, weapons, and martial traditions of these peoples. As a result, new scientific approaches are formed on the culture and political system of The Settlers of antiquity.

Keywords: Saka-skif, skolot, management system, political structure, military organization.

Kirish: Ushbu maqolada yunon-rim tarixchilari asarlarida aks etgan ilk sak-massaget ko‘chmanchi xalqlarning boshqaruv tizimi tahlil qilinadi. Antik davr manbalariga, xususan Gerodot, Strabon, Kvint Kurtsiy Ruf va boshqa yozuvchilarning asarlariga asoslanib, maqolada ko‘chmanchilarning siyosiy, ijtimoiy va harbiy siyosatlari yoritiladi. Shuningdek, ilk sak massaget ko‘chmanchilari hayoti mualliflar asarlarida tarixiy tahlil, analiz, sintez va qiyosiy-taqqoslash orqali ularning qadimgi O‘rta Osiyoda istiqomat qilgan boshqa xalqlar bilan bo‘lgan aloqalarini o‘rganishga katta xizmat qiladi. Tarixiy dalillar shuni ko‘rsatadiki, sak-massaget xalqlari qat’iy markazlashmagan, balki harbiy-demokratik boshqaruv tizimi asosida, oqsoqollar va harbiy zodagonlar kengashi orqali boshqarilgan.Aynan, bu boshqaruv shakliga asos bo‘lgan ijtimoiy va siyosiy omillarini hamda davr talabidan kelib chiqib o‘rganishda ushbu maqola yordam bera oladi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 27.01.2026

ADABIYOTLAR TAHLILI (АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ/ LITERATURE ANALYSIS). Ilk sak-massaget ko‘chmanchi xalqlari haqida ilk tarixiy ma’lumotlar asosan qadimgi yunon-rim mualliflarining asarlarida uchraydi. Bular orqali, bir tomondan, ularning siyosiy va ijtimoiy tuzilishini o‘rganishda muhim o‘rin tutsa, ikkinchi tomondan, ko‘chmanchi jamiyatlarning o‘ziga xos boshqaruv tizimini tushunishga va tahlil qilishga imkon beradi. XX asrning 50-60-yillarida arxeologik tadqiqotlar asosida , O‘rta Osiyoning bronza va ilk temir davri chorvador-ko‘chmanchi aholisi tarixi to‘g‘risidagi ma’lumotlar yanada kengaydi. Ulardan chorvadorlar o‘rtasidagi iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar tarixini o‘rganishda foydalaniladi. Bu masalada S.P.Tolstov, Ya.G.G‘ulomov, Akishev, A.M.Mandelshtam, B.A.Litvinskiy, A.A.Asqarov, M.A.Itina, Yustin va boshqa olimlarning tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega [11]. Gerodot o‘zining asarida massagetlar haqida batafsil qoldirgan.U massagetlar jamiyatida ayollarning yuqori maqomga ega bo‘lishi, boshqaruvda ishtirok etishi va hatto ularning malikasi To‘marisning mashhur jangovar yurishi haqida so‘z yuritgan.[5]. Strabon esa o‘zining “Geografiya” da saklar va massagetlar yashagan hududlar, ularning hayot tarzi, iqtisodiy faoliyati va siyosiy tashkilotini tasvirlabgina qolmay, ularning urug‘-qabilaviy kengashlarga tayangan holda ish olib borishgan.[6]. Arrian ham sak-massagetlar haqida yozgan bo‘lib, uning asarlarida ko‘chmanchi boshqaruv tizimining elementlarini ko‘rish mumkin.[7]. Shuningdek, zamonaviy tadqiqotchilardan B.A.Litvinskiy,V.A. Kuznetsov, A.B.Ditmar, kabi olimlar ham qadimgi manbalarni tahlil qilish asosida sak-massagetlar boshqaruv tizimi bo‘yicha ilmiy xulosalar chiqarganlar. Ularning izlanishlari yunon-rim manbalarida keltirilgan ma’lumotlarni arxeologik topilmalar va boshqa etnografik dalillar bilan solishtirib tahlil qilinadi. Bu yondashuv sak-massagetlar jamiyatining boshqaruv tizimi urug‘-qabila demokratiyasi, harbiy yetakchilik va davriy boshqaruv shakllari mavjud bo‘lganligini tasdiqlaydi. Atoqli olim A.B.Ditmar qadimgi skif qabilalari haqida bir qator yirik tadqiqotlarni yaratadi va skiflarning kelib chiqish tarixi haqida o‘zining qimmatli fikrlarini bildiradi, “Skiflar O‘rta Osiyodan

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 27.01.2026

tarqalgan edi", - deb yozadi A.B.Ditmar o'zining "Skifiyadan Elefantingacha" nomli tadqiqotida, - ularning (skiflarning B.F.) tili shimoliy Eron tillari guruhiga kiradi, shuningdek, ular O'rta Osiyoda yashagan sak va massaget qabilalari bilan urug'dosh edi.[12]. B.A. Litvinskiy o'zining tadqiqot va izlanishlari natijasi asosidagi "Древние кочевники Крыши мира" asarida ko'chmanchi xalqlari haqida zaruriy ma'lumotlar qoldira olgan.[10].

Shunday qilib, qadimgi yunon-rim tarixchilari asarlari ilk sak-massaget xalqlarining boshqaruv tizimini tushunishda muhim manba bo'lib xizmat qilkadi.. Ularning yozuvlari orqali bu xalqlarda boshqaruv urug'-qabilaviy tuzilishga asoslangani, ayollarning siyosiy faolligi, harbiy-demokratik elementlar va kengashlar faoliyati mavjud bo'lganini ko'rishimiz mumkin. Ammo bu manbalar tanqidiy tahlilni, zamonaviy arxeologik va tarixiy tadqiqotlar bilan muvofiqlashtirilishini taqozo etadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR (ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ / DISCUSSION AND RESULTS. O'rta Osiyoda istiqomat qilgan ilk sak-massaget ko'chmanchi xalqlarning tarixini o'rganishda keng yordamchi bo'luvchi manbalar sifatida yunon-rim tarixchilarining asarlarini aytish mumkin. "Bronza davridan boshlab chorvador qabilalar mintaqaning tog' oldi hududlarida va dashtlarida keng tarqalgan. Ularda o'ziga xos iqtisodiy va ijtimoiy tuzum rivojlangan. Olimlar ko'chmanchilardagi boshqaruv va siyosiy tizim jarayonlarini o'rganishda dastavval yozma manbalarga e'tibor berganlar."[2]."Ko'chmanchilarning siyosiy birlashmalarga uyushganliklari to'g'risida yunon tarixchi Ktesiyning saklar malikasi Zarina O'rta Osiyoning janubida o'z hukmronligini o'rnatish uchun Midiya qo'shinlari bilan jang qilganligi to'g'risidagi xabarlari dalolat beradi "[3]. "Avesto" da O'rta Osiyoning ko'chmanchi qabilalari "tur" va "danu" deb ataladi. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, ular ko'chmanchilar orasida harbiy- siyosiy qabila uyushmalari vujudga kelgan davrlarda yashaganlar. Dastlabki ko'chmanchilarning ijtimoiy va siyosiy tarixini o'rganishda Quyi Sirdaryodagi

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 27.01.2026

mil.avv. IX-VIII asrlarga oid Tagisken maqbaralarida topib tekshirilgan ma'lumotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Tagisken qabrlarida ko'chmanchilarning sardorlari va oqsoqollari dafn etilgan."[4]. Skif xalqlari haqidagi ma'lumotlar Gerodotning qadimgi O'rta Osiyo to'g'risidagi asosiy fikrlari forslarning sak-massagetlarga qarshi yurishlari, Kir II va To'maris o'rtasidagi siyosiy munosabatlar, Ahamoniy harbiy qo'shinlari safida ajdodlarimiz jangchilarining faol ishtiroki, ularning qurol-aslahalari, yo'lboshchilari, janglarda ularning ko'rsatgan jasoratlari, ajdodlarimizning Ahamoniylar asoratiga tushib katta xiroj to'lashlari, Akes daryosi suvlaridan foydalanish masalasida tug'ilgan mojarolar va boshqalar haqida boradi.[7]. Buning asosida ko'rishimiz mumkinki, massagetlarda boshqaruv tizimi ko'chmanchilarga xos tarzda bo'lgan. Gerodot O'rta Osiyoda hech qachon bo'lmagan, shu sababli bu mintaqa va uning aholisi haqida o'zi eshitgan hikoyalari va surishtirib, turli ma'lumotlarni yig'ish asosida "Tarix" asarida saklarni 11 marta va massagetlarni 19 marta tilga olgan [1]. Yunon tarixchisi Gerodotning "Tarix" asaridan "Skiflarning aytishlaricha, ular boshqalardan ko'ra yosh el hisoblanadi.Yurtlarida hali hech kim yashamagan zamonda bu yerga birinchi bo'lib Targitay degan odam kelib joylashgan. Targitayning ajdodlari skiflarning aytishicha, ota tomondan Zevsga, ona tomondan Borisfen daryosining qiziga taqaladi. (Ko'p aytishlariga qaramay, men bu gapga barbir ishonmayman). Targitayning: Lipoksais,Arpoksais , kenja- Koloksais degan uch o'g'il bo'lgan.[5]."Aytishlaricha, aka-ukalarning kattasi-Lipoksaisdan skiflarning avhat qabilasi, o'rtanchasidan katiar va traspiy; kenjasi- shohdan esa paralat deb atalavchi qabilalar tarqalgan. Bu qabilalar birgalikda skolotlar,ya'ni shoh qabila deb ataladi. Ellinlar ularni skif deb yuritishadi.[5]. Yuqoridagi ma'lumotlarga asoslanadigan bo'lsak,skif qabilalari skolotlardan iborat podsholar boshqaradigan o'ziga xos qabilalar ittifoqidan iborat xalqlar bo'lgan. Bundan ko'rish mumkinki,O'rta Osiyodagi ko'chmanchi qabilalarda ham qabila va qabila ittifoqlari shakllanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ba'zi tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, massagetlar aynan sak qabilalarning harbiy uyushmasini tashkil

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 27.01.2026

qilganlar. Gerodotning massagetlar haqidagi xabarlaridan tadqiqotchilar qadimgi tarix masalalarini yoritishda keng foydalanganlar.[4]. Yunon tarixchisining aytishicha, Kir II Bobil va Ossuriyani zabt etganidan so‘ng massagetlar yurtiga bostirib kirishni rejalashtirgan. Gerodot shunday yozadi: “Shu xalqlarga ega bo’lgandan so‘ng, Kir massagetlarni bo‘ysundirishga qaror qilgan. Aytishlaricha, bu massagetlar jasur va behisob qabiladir. Ular sharqda, quyosh chiqishi yo‘nalishida, Araks daryosining ortida issedonlarga ro‘para bo’lib joylashganlar. Ba’zilar ularni skif qabilasi deb hisoblashadi”.[5]. Fors shohi Doro III qo‘shinlari bilan Gavgamella jangida (mil. avv. 331 yil) unon-makedoniyaliklar sak suvoriy o‘qchilariga duch kelganlar. Doro III qo‘shinlarining o‘ng qanotida joylashgan sak chavandozlari yunon-makedoniyaliklarga qattiq zarba berishgan.[9]. Arrianning aytishicha, saklar Osiyoda yashovchi skif qabilalaridan bo‘lib, ular Doroning bevosita ittifoqdoshlari edi,[7].ya’ni bu paytda saklar forslarga bo‘ysunmaganlar. Keyingi davr yunon-rim tarixchilari va geograflari asarlarida “skif” tushunchasi umumiy ma’noda turli chorvador qabilalari (daxlar, saklar, massagetlar) bilan bog’langan. Manbalarda ularga nisbatan “xalq” yoki “elat” tushunchasi deyarli ishlatilmagan, chorvadorlar ko‘proq “qabila” deb va o‘z etnonimiga ko‘ra tilga olingan. [8]. Ilk saklarning ijtimoiy-iqtisodiy tizimidagi kundalik mashg‘ulotlar va xo‘jalik ishlari (chorvachilik, chorvachilik-dehqonchilik, ovchilik, baliqchilik, hunarmandchilik va konchilik) vazifalariga ko‘ra ishlab chiqarish jarayonida jamoalarning o‘rtahol va oddiy a’zolari katta ahamiyatga ega bo‘lishgan. Chorvadorlar jamiyati asosini katta patriarxal (ota-o‘g‘illar) oila tashkil etgan. Umumiy ajdoddan kelib chiqqan bunday oilalar urug‘ tizimida birlashgan. Urug‘ jamoalari qabila tarkibiga kirgan. Hududiy va qarindoshlik aloqalari qatorida urug‘-qabilaviy urf-odatlar va umumiy e’tiqodlar eng muhim birlashtiruvchi omil bo‘lgan. Orolbo‘yi ilk saklarning ijtimoiy tuzilishida jangchi-cho‘ponlar, kohinlar, katta oila va urug‘ boshliqlari hamda qabila yo‘lboshchilari kabi turli qatlamlar o‘zlarining mavqei, amaliy bilimlari, tashkiliy faoliyati va jamiyat hayotidagi o‘rni bilan ajralib turgan. Boshqaruv tizimi “harbiy demokratiya” tamoyillariga

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 27.01.2026

asoslangan. Urug‘-qabila oqsoqollari kengashi va jamoalar yig‘ilishida muhim ijtimoiy-iqtisodiy masalalar muhokama qilingan.[8].Matriarxat davri izlari, ayollarning urug‘-qabila jamoalarida erkaklar qatori ko‘p jihatdan teng huquqlarga ega bo‘lganligi, sak-massagetlar jamiyatida suvoriy jangchi - ayollar va kohinalarning mavjudligi misolida hamda ko‘chmanchi qabilalarning birlashuvlarida Zarina, Sparetra va To‘maris kabi malika hukmdorlarning harbiy faoliyati yozma manbalarda o‘z aksini topgan.[8].

Xulosa./Conclusion Ushbu tadqiqot ko‘ra, yunon-rim tarixchilari - Gerodot, Strabon, Kvint Kurtsiy Ruf,Arrian va boshqa manbalarda keltirilgan ma’lumotlar asosida sak-massaget ko‘chmanchi xalqlarining boshqaruv tizimi va ijtimoiy tuzilishi haqida muhim xulosalar chiqarish mumkin. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ushbu xalqlar markazlashmagan boshqaruv tizimiga ega bo‘lib, u harbiy-demokratik asosda shakllangan. Qabila sardorlari va harbiy zodagonlar kengashi qaror qabul qilishda muhim rol o‘ynaganligini ko‘rish mumkin.

Gerodot va boshqa antik tarixchilarning asarlari sak-massagetlarning harbiy va siyosiy faoliyatini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, ularning Ahamoniylar podsholigi bilan bo‘lgan harbiy to‘qnashuvlari, Massaget malikasi To‘marisning Kir II ga qarshi kurashi va Kvint Kurtsiy Rufning Aleksandr Makedonskiy davridagi voqealar tahlili ko‘chmanchi xalqlarning tarixiy o‘rnini yanada yoritadi. Shuningdek, tadqiqot davomida yozma manbalar va arxeologik topilmalar asosida sak-massagetlarning harbiy an’analari, qurollanishi va ijtimoiy tuzilishi haqida yangi ilmiy xulosalar shakllantirish mumkin. Ushbu natijalar qadimgi O‘rta Osiyo ko‘chmanchi xalqlari tarixi va madaniyatini tadqiq qilishda muhim dalillarni taqdim etadi hamda kelgusidagi izlanishlar uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 27.01.2026

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Сагдуллаев А. Қадимги Ўзбекистон илк ёзма манбаларда. – Б. 34.
2. Абдуллаев Ў.И. Ўрта Осиёда қадимги бошқарув ва илк давлатчилик тарихшунослиги. – Тошкент: Akademiya, 2009.
3. Толстов С. П, Итина М. А Саки низовъев Сырдаръи (по материалам Тагискена) Советская археология. – 1966. 2. – С 151-157;
4. Пьянков И.В. Массагеты Геродота. – ВДИ, М., 1975, №2, с. 46-47.
5. Геродот. Кн. I,IV,VII, 64.
6. Страбон. Кн. XI, VIII.
7. Арриан. Поход Александра / Пер. М.Е. Сергеенко. – М.–Л., 1962, Кн. III, гл. 8, 3, 4.
8. Юсупов А. Оролбўйи илк сак қабилалари тарихи. – Б, 2023.
9. Аскаров Ўзбек халқининг келиб чикиш тарихи . – Тошкент: O’zbekiston , 2015 .– Б. 102-103 ;
10. Литвинский Б.А.Древние кочевники «Крыши мира». – М., 1972. – С. 158-178.
11. Толстов С.II. Приаральские скифы и Хорезм // Советская этнография. 1961. - № 4. - С. 114-146
12. L. V. Ditmar. Ot skifado Elevantini, M ., 1961, str. 22.